



GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARIDAGI “TOSHBAQA VA CHAYON” MASALIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING ZOONIMIK METAFORALAR HOSIL QILISHDAGI O‘RNI

Masharipova Shahnoza Baxramovna,
O‘zbek tili fani o‘qituvchisi
Urganch davlat Tibbiyot instituti
E-mail: shahnozabahramovna88@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18449690>

Annatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakili Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridan joy olgan “Toshbaqa va chayon” masal matni asosida frazeologik birliklarning zoonimik metaforalar hosil qilishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tahlil davomida hayvon nomlari ishtirokidagi frazeologik birliklarning semantik, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari ochib beriladi. Zoonimik metaforalar orqali inson xarakteri, axloqiy sifatlari va ijtimoiy munosabatlarining ifodalanishi ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Zarbulmasal, frazeologik birliklar, zoonim, zoonimik metafora, Toshbaqa, Chayon.

Annotation. This article examines the role of phraseological units in the formation of zoonymic metaphors based on the story “The Tortoise and the Scorpion” included in Zarbulmasal by Muhammadsharif Gulkhani, a prominent representative of Uzbek classical literature. The research focuses on the semantic, pragmatic, and linguocultural characteristics of phraseological units involving animal names. Particular attention is paid to the mechanisms through which zoonymic metaphors convey human character traits, ethical values, and social relations. The study employs descriptive, semantic, and contextual analysis methods, and the findings contribute to a deeper understanding of the metaphorical potential of zoonym-based phraseology in literary discourse.

Keywords: Zarbulmasal; phraseological units; zoonym; zoonymic metaphor; tortoise; scorpion.

Аннотация. В статье исследуется роль фразеологических единиц в формировании зоонимических метафор на материале рассказа «Черепаша и скорпион», входящего в произведение «Зарбулмасал» выдающегося представителя узбекской классической литературы Мухаммадшарифа Гулхани. Основное внимание уделяется семантическим, прагматическим и лингвокультурологическим особенностям фразеологических единиц с компонентом-зоонимом. Анализируются механизмы репрезентации черт характера человека, нравственных ценностей и социальных отношений посредством зоонимических метафор. В исследовании применяются описательный, семантический и контекстуальный методы анализа, что позволяет выявить высокий образно-экспрессивный потенциал зоонимической фразеологии в художественном дискурсе.

Ключевые слова: Зарбулмасал; фразеологические единицы; зооним; зоонимическая метафора; черепаха; скорпион.

Kirish. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida hayvonlar obrazi orqali inson tabiatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni ifodalash qadimiy va boy an’anaga ega. Xususan, ertak, masal, hikoyat va maqollarda zoonimlar prototipi asosida shakllangan obrazlar



axloqiy-ta'limiy mazmuni yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. O'zbek masalchiligining go'zal namunasi bo'lgan "Zarbulmasal" ana shunday asarlardan biri bo'lib, asar tili frazeologik birliklarga boyligi bilan ham ajralib turadi. "Toshbaqa va chayon" masalida frazeologik birliklarning zoonimik metaforalar hosil qilishi orqali inson fe'l-atvori, ehtiyotkorlik, xiyonat, hamroh tanlashda adashmaslik kabi tushunchalarni shakllantirish, shuningdek bu frazeologik birliklar yordamida nafaqat obraz yaratish, balki muayyan madaniy va ijtimoiy kodlarni ham uzatadi.

Ushbu maqola "Toshbaqa va chayon" masalidagi frazeologik birliklar orqali zoonimik metaforalarni shakllantirish o'rinlarini asoslab beradi.

Tadqiqotning dolzabrligi. Hozirgi zamon tilshunosligida frazeologik birliklarning lingvokulturologik va kognativ jihatdan o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. V.N. Teliya frazeologizmlarni milliy madaniyatning til orqali ifodlangan shakli sifatida baholaydi [4:45-bet]. Frazeologik birliklar tilning eng obrazli va mazmunan boy qatlamlaridan biri bo'lib, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati va dunyoqarashini o'zida mujassamlashtiradi. Frazeologizmlar nutqqa baholovchanlik va emotsional-ekspressivlik bag'ishlaydi [1:12-bet]. Ayniqsa, zoonimlar ishtirokidagi frazeologizmlar insoniy fazilatlar yoki illatlarning yaqqol namoyon bo'lish o'rinlari aks ettiruvchi asosiy birliklardan sanaladi.

"Toshbaqa va chayon" masalida hayvon nomlari asosida yaratilgan metaforalar inson xarakterini baholash, ijtimoiy munosabatlarni aks ettirish va axloqiy xulosa chiqarishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada "Toshbaqa va chayon" hikoyatidagi frazeologik birliklarning matndagi funksiyasini aniqlash orqali kontekstual tahlil olib borildi. Lingvokulturologik yondashuv orqali frazeologik birliklarning milliy madaniyat va mentalitet bilan bog'liqligini ochishga harakat qilingan [2:78-bet].

Zoonimik metafora – hayvon nomlari orqali insonga xos xusiyatlarni ifodalovchi obrazli vositadir. Metafora esa inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida baholanadi [6:4-bet].

"Toshbaqa va chayon" masalida Toshbaqa va chayon obrazlari markaziy o'rinda turadi. Hikoya matni bilan tanishish jarayonida Toshbaqa – ehtiyotkorlik, sabr-toqat va og'ir – bosiqlik ramzi sifatida namoyon bo'lsa, Chayon - xiyonat, xavf va beqarorlik timsoli sifatida tasvirlanadi. Bu qarama-qarshi xususiyatga ega qahramonlar orqali inson tabiatiga xos bo'lgan ijobiy va salbiy jihatlarni ochib berishda ijodkor qahramonlar tilida qo'llanilgan frazeologik birliklardan unumli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin.



Frazeologik birliklarning zoonomik metaforalar hosil qilishdagi o'ri
Zoonimlar ishtirokidagi frazeologizmlar ko'pincha baholovchi semantikaga
ega bo'ladi[1:102-bet].

Hikoyada qo'llanilgan frazeologik birliklar qahramonlarning axloqiy sifatlarini
ifodalash uchun baholovchi funksiyani bajarsa, boshqa o'rinda o'quvchida hissiy
munosabat uyg'otish uchun ta'sirchanlik funksiyasini bajaradi.

“Eshak o'yuni qirq yilda” maqoli [5:32] hikoyatda zoonomik metafora sifatida
xizmat qilib, inson xarakterining o'zgarishligi, nodonlik va ishonchsizlik g'oyasini
kuchaytiradi. Aynan Chayonning asl tabiatini o'zgartirib bo'lmasligini, undan
yaxshilik kutish befovdaligi, aslida ko'ringani ham aldov yoki tasodif ekanini
ifodalaydi. Bu maqol zoonomik metafora asosida yuzga kelgan qahramonning
axloqiy sifatlarini baholovchi frazeologik birlik hisoblanadi. Bu orqali esa xalq
tafakkurida o'zgarish tabiat g'oyasini shakllantiradi.

“Yaxshilik qil- suvg'a sol, suv bilmasa boliq bilur, boliq bilmasa xoliq bilur”
maqoli[5:32] orqali Toshbaqa obraziga xos axloqiy sifatning o'quvchi tafakkurida
hissiy munosabat shakllantirishi uchun ta'sirchanlik vazifasini oshirishga xizmat
qilgan yana bir zoonomik metafora sifatida ko'rishimiz mumkin.

Lingvokulturologik jihatlar

Zoonomik metaforalar milliy tafakkur mahsuli hisoblanadi.
B. Alimhammedovning ta'kidlashicha, hayvonlar orqali inson xatti-harakatlarini
baholash Sharq folkloriga xos xususiyatdir[3:59-bet]. “Toshbaqa va chayon”
masalida zoonomik metaforalar yordamida insonga xos xususiyatlar hayvon tabiatiga
qiyoslanadi. Bu esa xalq tafakkurida shakllangan stereotiplarning til birliklari orqali
namoyon bo'lishini anglatadi.

Zoonomik metaforalar milliy madaniyat bilan uzviy bog'liq holatdir. Toshbaqa
va chayon obrazlari orqali xalqning ehtiyotkorlikka, ishonchga va axloqiy
mas'uliyatga bo'lgan munosabatini ifodaladi. Jamiyat vakillariga Chayon tabiatiga
xos illitlardan uzoq bo'lish g'oyalarini singdirishga urinadi. Frazeologik birliklar esa
ushbu tushunchalarni ixcham va obrazli tarzda yetkazib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra “Zarbulmasal” asaridagi “Toshbaqa va chayon”
masalida ishlatilgan frazeologik birliklar zoonomik metaforalarni hosil qilishda
muhim o'rin egallagan. Shu bilan birgalikda ushbu birliklar orqali yuzga kelgan
metaforalar inson tabiati, axloqiy me'yor, ijtimoiy munosabtlarni ochib berishda ham
muhim ahamiyat kasb etgan. Frazeologik birliklar orqali qo'llanilgan zoonomik
metaforalar esa ifodaviylik va obrazlilikni kuchaytirishda muhim rol



o'ynaydi. Mazkur tadqiqot frazeologiya va folklorshunoslik sohalari rivojiga ilmiy hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining asoslari.-Toshkent,2017.12-bet va 102-bet
2. Karimov N. O'zbek folklori va til.-Toshkent,2019.78-bet
3. Alimhammedov B. Zoonimlar va ularningf semantik xususiyatlari.-Toshkent,2020.59-bet
4. Teliya V.N.Frazeologiya va madaniyat.-Moskva,2016.45-bet
5. Zarbulmasal matni(to'liq nashr).-Toshkent,1972.Nashga tayyorlovchi S.Dolimov.32-bet
6. Lakoff G.,Johnson M. Metaphors We Live By. –Chicago:University of Chicago Press,2003.4-bet

